



Aybibi ISKANDAROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n
E-mail: aybibiiskandarova1962@gmail.com

BuxDU dotsenti, PhD N.Adizova taqrizi asosida

“ANNA KARENINA” ROMANI TARJIMASIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING XOSLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada L.N.Tolstoyning “Anna Karenina” romani konseptual tizimida lingvomadaniy birliklarning o'zini va vazifasiga to'xtalinadi. Frazeologik birliklar olamning lisoniy manzarasi sifatida baholanishi, ularda xalqning milliy dunyoqarashi aks etishi, badiiy asarning obrazli tizimi va yozuvchining idioshtilini yaratishda hayotiy manba ekanligi, tarjimada ularning maqsad tiliga xoslanishi, interpretatsiya jarayonida o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi kabi holatlar haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: Frazema, interpretatsiya, xoslanish, semiotik kod, kognitiv baho, lisoniy surat, yozuvchi idioshtili.

ХАРАКТЕРНЫЕ СВОЙСТВА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПЕРЕВОДЕ РОМАНА “АННА КАРЕНИНА”

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и функция лингвокультурологических единиц в концептуальной системе романа Л.Н.Толстого "Анна Каренина." Высказывается мнение о том, что фразеологические единицы оцениваются как языковая картина мира, в них отражается национальное мировоззрение народа, они являются жизненным источником в создании образной системы художественного произведения и идиостиля писателя, в переводе они соответствуют целевому языку, проявляются в своеобразной форме в процессе интерпретации.

Ключевые слова: Фразема, интерпретация, идентификация, семиотический код, когнитивная оценка, языковая картина, идиостиль писателя.

CHARACTERIZATION OF LINGUOCULTURAL UNITS IN THE TRANSLATION OF THE NOVEL “ANNA KARENINA”

Annotation

This article focuses on the role and function of linguocultural units in the conceptual system of L.N. Tolstoy's novel "Anna Karenina." Phraseological units are evaluated as a linguistic picture of the world, they reflect the national worldview of the people, they are a vital source in creating the figurative system of a work of art and the writer's idioshtyle, their adaptation to the target language in translation, and their manifestation in a unique form in the process of interpretation.

Key words: Phrase, interpretation, specification, semiotic code, cognitive evaluation, linguistic image, writer's idioshtyle.

Kirish. Tilshunoslik fanining antroposentrik paradigmasi doirasida adabiy matn milliy va jahon madaniyatining o'ziga xos bo'lagi, yozuvchi va tarjimonning intellektual ijodi mahsul, kognitiv axborot manbai sifatida o'rganiladi.

Tarjima birliklarining lingvomadaniy xoslanishi badiiy asarlardagi ko'p ma'noli so'zlar, o'xshatishlar, iboralar, realiyalarning maqsad tiliga milliylik holda o'girinish jarayoni. Bu jarayon korpus lingvistikasida morfologik va semantik teglanish orqali sodir bo'ladi. Tarjima birliklarining parallel korpusda morfologik, ya'ni so'z turkumlari jihatidan, semantik ma'no jihatidan bir-birlariga mos kelishi va teglanishi korpus lingvistikasida xoslanish hodisasi deyiladi.

L.N.Tolstoy “Anna Karenina” romanini 1877-yilda yozib tugallagan, 1875-1877-yillarda “Русский вестник” jurnalining bir necha sonlarida e'lon qilingan. Romani Mirzakalon Ismoilov o'zbek tiliga tarjima qilgan, asarning 1980-yildagi nashri mukammal nusxa sifatida qayd etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Nooxshash tillar orasida kechadigan tarjima murakkab jarayon bo'lib til, madaniyat, tafakkur sintezi tarjimaning sifatini belgilaydi: “Tarjimashunoslikning asosiy maqsadlari qatoriga birinchidan, ikkita boshqa-boshqa lisoniy madaniyat vakillari asliyat va tarjima matnlarini qanday tushunishni aniqlash kirs, ikkinchidan, ularning idrok etish qobiliyatiga til-madaniyat -

tafakkur munosabati qanday ta'sir o'tkazishi mumkinligini belgilashdir. Xuddi shuningdek, ushbu uchlik munosabati tarjimon tanlayotgan amaliy rejalar, ya'ni tarjimon strategiyasidan qanday o'rin egallashini bilish ham muhim”[1].

Olam lisoniy manzarasining etnomadaniy xususiyatlari borasida fikr yuritgan olim L.Vaysgerber ushbu holatni ma'lum bir lisoniy jamoaning madaniy va mental o'ziga xosligini namoyon qiluvchi xususiyatlar majmuasidan iborat tizim ekanligini ta'kidlaydi: “Til – deb yozadi L.Vaysgerber – lisoniy jamoa tomonidan to'plangan tajribani to'lig'icha aks ettiradi va ushbu madaniyatning har bir alohida olingan vakili ongiga ta'sir o'tkazadi hamda keyingi avlodlarga alohida dunyoqarash orqali uzatadi”[1].

Tahlil va natijalar. Mirzakalon Ismoilov “Anna Karenina” asarini tarjima qilgan ekan, asliyat matni g'oyasi, obrazlar mohiyati, roman ohangini yaxshi ilg'aydi: Asarda “вывернутых ног”birikmasini tauroq oyoqlari shaklida o'giradi. Tauroq - yalpoq, bir oz yassi degan ma'noni anglatadi. Bu so'z Xorazm shevalarida, Turkmaniston Tashauz aholisi – o'zbeklar yashaydigan hududda, o'g'uz lahjasida bugungi kunda ham mavjud. Asar tarjimasida “вывернутых ног” asliyat ma'nosiga mos, milliylikka xos birlikka aylangan. Постоялом дворе-karvonsaroy lingvomadaniy birligi tarzida o'girilgan. Ekvivalentlarning mana shunday mos holatda tanlanishi tarjimaning sifatini belgilaydi. Tarjimada aniqlik

bosh mezonlardan biri, aniqlik bo'lgandagina ekvivalentlik ravshan tus oladi, matndagi so'z tarjima qolipiga tushadi.

| | |
|---|--|
| Все члены семьи и домочадцы чувствовали, что нет смысла в их сожительстве и что на каждом постоялом дворе случайно сошедшиеся люди более связаны между собой, чем они, члены семьи и домочадцы Облонских. | Oilaning barcha a'zolari va uy xizmatkorlari: o'zlarining birga turishlarida hech qanday ma'no qolmaganini va har qanday karvonsaroyda tasodifan topishgan odamlarning ulardan ko'ra, ya'ni Oblonskiylarning oila a'zolari bilan uy xizmatkorlaridan ko'ra, bir-birlariga inoqroq ekanliklarini sezib turadilar. |
|---|--|

S.I.Ojegov va N.Yu.Shvedovalarning “Тольковский словарь русского языка” lug'atida: постоялый двор (устар.) – трактир с местами для ночлега и с двором для лошадей, повозок. Остановиться на постоялом дворе deya izohlangan [2]. Bu so'z otlar va aravalar uchun hovlisi bo'lgan, yo'lovchilar dam olib to'xtaydigan traktir yoki mehmonxona deb tarjima qilinadi. Mutarjim asarda bu so'zni aniq va mos ekvivalent sifatida karvonsaroy deb o'g'irgan. “Одни или с супругом?” gapi “O'zlari keladilarmi yo zavjlari bilanmi?” shaklida o'g'irilgan. Mutarjim sahifa nihoyasida zavj so'ziga – arabcha - eri, qayliq deya izoh bergan. Zavj so'zi mumtoz adabiyotda ko'p qo'llanadigan birlik, roman tarjima qilingan davrda bu so'z – faol badiiy leksema sanalgan, “с супругом?” birligining zavjlari bilanmi tarzida o'g'irilishi davr ruhiga mos holatda so'z tanlanishidir. Ammo asarda tarjimon атласных шубках birikmasini – atlas po'stinchasi tarzida noto'g'ri tarjima qilgan, bizningcha, bu birlik o'rniga shoyi so'zi ishlatilganida maqsadga muvofiq bo'lardi, chunki zodagan

Sherbatskiy tavsifiga mos so'z shoyi so'zidir. O'zbek tilining izohli lug'atida shoyi so'zi [f.shohga oid, mansub] ipakdan to'qilgan gazlama, mato; shohi. Ipakli kiyim, ipak gazlamadan tikilgan kiyim sifatida izohlangan [3.592]. Atlas esa mahalliy ipak gazlama deb tavsiflangan: Atlas [a.tekis, silliq, ipakdan to'qilgan mayin mato. Bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan mahalliy ipak gazlama [4.114]. Demak, adekvat tarjimada Sherbatskiy atlas emas, shoyi po'stincha kiyishi kerak edi.

Tarjimonlar, asosan, badiiy asarlarning tarjimasida jarayonida ikki asosiy tamoyilga tayanishga harakat qiladilar: asliyatga sadoqat – muallif g'oyasini buzmaslik, badiiy obrazlarni to'liq saqlash; milliy til tabiiyligi – o'zbek tilining ifodaviy imkoniyatlarini tarjimada to'liq holatda qo'llay olish. Mirzakalon Ismoilii ham tarjimalarida ana shu sinalgan yo'ldan borishga harakat qiladi: romanning obrazlarini to'liq saqlab qolishga harakat qiladi, milliy tilimizning turli xildagi semantik kombinatsiyalaridan foydalanadi:

| | |
|--|--|
| - Вы сходите, сударь, повинитесь еще. Авось Бог даст. Очень мучаются, и смотреть жалости, да и все в доме навывнуга ты пошло. Детей, сударь, пожелать надо. Повинитесь, сударь. Что делать! Люби кататься. | - Borib uzr so'rasangiz, yaxshi bo'larmidi, aylanay. Zora Xudo yarlaqasa. Juda qiynalyaptilar; odamning rahmi keladi. Uyga ham zil ketdi. Aylanay, bolalarga rahm qiling, uzr so'rang, aylanay. Nachora, mingashma, keyin... |
|--|--|

Yuqoridagi mikromatn tarjimasida “zora xudo yarlaqasa”, “uyga zil ketdi”, “aylanay” lingvomadaniy birliklari tanlangan. Tarjimada “aylanay” milliy konseptining uch marotaba ishlatilishi matnga milliy ruh va joziba bag'ishlagan. Tilshunos olimlar Ye.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarovlar: “Yozuvchi tilini o'rganish va o'zlashtirish orqali inson bir vaqtning o'zida yangi milliy madaniyatga kirib boradi va tilda saqlanib qolgan ulkan ma'naviy boylikka ega bo'ladi” deb yozadilar [5.3]. Lingvomadaniy birlik sanaladigan iboralarda ham har bir xalqning o'ziga xosligi aks etadi. Iboralar dunyoni anglashning lingvistik tasviri bo'lib, badiiy asarning obrazli tizimida, uning milliy-hayotiyligini ta'minlashda, yozuvchining idioshtilini yaratishda, ahamiyatlidir: “Har bir etnik guruhning dunyoqarashi, dunyoni tushunishi va konsepsiyasi milliy xususiyatga ega bo'lib, har bir xalqning tili haqiqatni kodlashning o'ziga xos usulidir.

Frazeologizmlar o'ziga xos semiotik kodlar vazifasini bajarib, xalq tarixi, madaniyati va mentalitetini tushunish imkonini beradi” [4].

Asliyatdan maqsad tiliga tarjima jarayonida ba'zan so'z yoki birikma - lingvomadaniy birlik – iboraga aylanadi. Bu jarayon tarjimada interpretatsiya hodisasi deyiladi. Interpretatsiya – maqsad tiliga o'girilayotgan badiiy matnda, asarning umumiy g'oyasini saqlagan holda, o'zini namoyon qiluvchi milliy konseptlardir. Bu, o'z navbatida, tarjimonning dunyoni milliy-kognitiv anglashi va tajribasi asosida ro'y beradi. Rus tilida “образуется” fe'li shakllanadi, hosil bo'ladi degan ma'noni ifodalaydi – roman tarjimasida “o'nglanib ketadi”, “попробовать хотите”- fe'l+fe'l shaklidagi erkin birikma “qo'yinlariga qo'l solib ko'rmoqchimisiz?” iboralarga aylangan.

| | |
|--|---|
| Попробовать хотите, - понял Матвей, но он сказал только: Слушаюсь. Ничего, сударь, образуется – сказал Матвей. | Matvey, Qo'yinlariga qo'l solib ko'rmoqchimisiz? -deb o'yladi-yu, lekin: Xo'p bo'ladi, - deb javob berdi. Hechqisi yo'q, taqsir, o'nglanib ketadi, - dedi Matvey. |
|--|---|

“Tarjimon ham boshqa shaxslar kabi tildan foydalanadi, lekin uning lisoniy faoliyati ikki til doirasida kechadi va ikkita til tizimiga murojaat qilayotgan shaxsning olamni bilish va unga lisoniy manzara berishga yo'naltirilgan kognitiv harakatlari o'ziga xos ko'rinish oladi” [1].

Asliyat va tarjimoni solishtiramiz:

Место это он получил через мужа сестры Анны, Алексея Александровича Каренина, занимавшего одно из важнейших мест в министерстве, к которому принадлежало присутствие; но если бы Каренин не назначил своего теток, Стива Облонский получил бы это место или другое подобное, тысячу в шесть жалованья,

которые ему были нужны, так как дела его, несмотря на достаточное состояние жены были расстроены.

Agar Karpenin qaynag'asini shu ishga tayinlamaganda ham, baribir Stiva Oblonskiy yuzlab boshqa shaxslar: og'a-inilari, opa-singillari, qarindoshlari, bolalari, amaki, tog'a, amma-xolalari orqali bu o'rinni yoki, olti ming so'm maoshli shunga o'xshash boshqa bir vazifani olardi, chunki unga pul kerak edi, xotining davlati yetarli bo'lishiga qaramay, uning ishlari xarob edi.

Mirzakalon Ismoilii tarjimada qaynag'a, og'a-inilari, opa-singillari, qarindoshlari, bolalari, amaki, tog'a, amma-xolalari birliklarini ishlatgan, bu so'zlarni “avlodlarga alohida

dunyoqarash orqali uzatilgan”, interpretatsiya jarayonida yorqinlashgan lingvomadaniy birliklar deyishimiz mumkin:

Badiiy asarda milliy konseptlar madaniy va lingvistik vazifalarni bajaradi. Lingvistik semantika va madaniy konnotatsiyalar ularning ma'nosiga singib ketadi. Frazeologik birliklarning mohiyatida xalq madaniyati, milliy tilining o'ziga xosliklari ifodalangani. “Anna Karenina” matnida frazeologik birliklar mavzu jihatidan xilma-xil. Matnda ularning qo'llanish chastotasi muallifning dunyoqarashi, badiiy asar g'oyasi bilan

bog'liq. Badiiy asarda frazeologik birliklar mutarjimning mahorati bilan uslubiy xoslanadi yoki qayta yaraladi.

Quyidagi parchada tarjimon to'rtta iboradan foydalangan: ko'ngli to'q; hech bir to'g'rida xalaqit bermaslik; ko'ngli tusaganini qilmoq; o'z mayliga tashlab qo'yamoq. Asliyat variantida esa ibora yo'q: я не мешал ей ни в чем; предоставлял ей возиться с детьми; с хозяйством как она хотела. Bular sintaktik qurilmalardir, frazeologik birliklar esa yaxlit ko'chma ma'noga ega bo'lishi, tarkibining qat'iyiligi bilan xarakterlanadi.

Я не мешал ей ни в чем предоставлял ей
возиться с детьми, с хозяйством как она хотела.

Xotinimning ko'ngli to'q edi, bolalari bilan baxtiyor edi, men
unga hech bir to'g'rida xalaqit bermas edim, ko'ngli
tusaganini qilsin deb, bolalarni, ro'zg'orni o'z mayliga
tashlab qo'ygan edim

Odatda insonlarga qo'yilgan ismlar, ular kiygan kiyimlar, tanovul qilgan ovqat nomlari ham o'sha xalqning lingvomadaniy birliklari sanaladi, tarjimada bunday so'zlarni, ko'pincha asliyatdagiday ifodalashadi: сюртук, шляпа – чашка, карета, kalach:

Gazetani o'qib bo'ldi, ikki chashka qahvani ichib, yog'li kalachni yeb bo'lgandan so'ng o'rnidan turdi, kalach uvoqlarini nimchasidan qoqdi-da, keng ko'ksini rostlab, shodonligini ichiga sig'dirolmay kulimsiradi, lekin bu tabassumni ko'nglidagi biron xursandchilik emas, yaxshi hazmi taom uyg'otgan edi.

Mirzakalon Ismoilij maishiy ma'nodagi lingvomadaniy birliklarni ba'zan asliyatdagiday qo'llaydi, sahifa nihoyasida ularning izohini beradi: masalan,

kalach (slavyancha aylana) – sharqiy va janubiy slavyan xalqlarining aylana shaklidagi oq noni. Bunday nonlarning o'rtasi ochiq bo'ladi.

G'aybullo Salomov tarjima hamma vaqt muayyan darajada interpretatsiya jarayoni ekanligi, bu jarayon uchun asarning bosh xususiyatlari asos qilib olinishi, badiiy asarning qimmatini saqlash tarjimonning birdan-bir maqsadi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi: “...Tarjimaning maqsadi qayta yaratishdir. Tarjima jarayonida bir tilning materiali o'rnini boshqa tilning materiali egallaydi, binobarin, tilga aloqador barcha badiiy vositalarni tarjimonning o'zi, o'z ona tilida, yangidan yaratadi; shunday qilib, til jabhasida tarjima – chinakam original ijod demakdir. Tarjimondan – asl nusxani to'g'ri interpretatsiya qilish talab qilinadi”[6]. “Frazeologik birliklar odatda o'zlarining muayyan leksik tarkiblari va qabul qilingan an'anaviy grammatik shakllarida ma'lum ma'no va uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanilar ekan, ona tilida ular tarjimasi uchun tanlangan ekvivalent yoki muqobil variantning

ham xuddi shunday xususiyatdor bo'lishi tabiiy jarangdorlikni vujudga keltiradi” [7]. Tarjimashunos olim Qudrat Musayev mazkur fikrni quyidagi misol bilan asoslaydi: “L.Tolstoyning “Anna Karenina” romanida qo'llanilgan “беленькая, как сахар” komparativ frazeologik birligi o'zbek tilida mavjud bo'lgan “Oppoq sutga chayganday” muqobil variant yordamida o'girilmasdan, moddiy jihatdan aniq tarjima qilinganki, hosil bo'lgan birikma oq rangning meyorij tarzdgay obrazli ifodasini o'zida mujassam eta olmaydi. Odatda mazkur vazifani o'tab keladigan “sut” so'zi “qand” ga ijobiy ta'riflanayotgan dilbar qiz yuzining jozibadorligini obrazli jonlantirish imkoniyatini bermaydi: Ишь ты красавица, беленькая, как сахар, – говорила одна, любуясь на Таничку и покачивая головой – АК, 1, 291// Улардан бири Таняга сукланиб караб: “Мунчаям чиройли киз экан, худди канддай оппог-а” – деди, калласини чайкатиб – АК, 1, 343” [7]. “Madaniyatlararo muloqot subyektiga aylanayotgan tarjimon bikognitiv va bimadaniy qobiliyat shaxsiga ham aylanishi dardor”[1].

Quyidagi matn tarjimasida Mirzakalon Ismoilij yettita ibora ishlatgan: o'nnglanib ketmoq; ko'zi yetmoq; iztirob ichida qolmoq; taqdirga tan bermoq; alam bilan to'lmoq; tomog'iga bir nima tiqilmoq; nafasi bo'g'ilib qolmoq. Asliyatda esa insonning ruhiy holatini, birorta voqea yoki hodisadan juda hayajonlanib ketishi va nafasi qisilib qolgandek holatga tushishini ifodalovchi bitta frazeologizm mavjud: “захватило дыхание” – nafasi bo'g'ilib qoldi. Matndagi “измученное, страдальческое лицо”, “покорный и отчаянный голос”, “что-то подступило к горлу”, “глаза заблестели слезами”- yozuvchi tomonidan voqealarni psixologik dalillash uchun ishlatilgan badiiy tasvir vositalari bo'lib, bular erkin sintaktik birliklardir.

Степан Аркадьич мог быть спокоен, когда он думал о жене, мог надеяться, что все образуется, по выражению Матвея, и мог спокойно читать газету и пить кофе; но когда он увидел ее измученное, страдальческое лицо, услышал этот звук голоса, покорный и отчаянный, ему захватило дыхание, что – то подступило к горлу, и глаза его заблестели слезами.

Stepan Arkadich xotini haqida o'ylanganida xotirjam edi, Matveyning so'zi bilan aytganda, hamma narsaning o'zidan-o'zi o'nnglanib ketishiga ko'zi yetardi, shuning uchun bamaylixotir gazetasi o'qib, qahvasini icha oldi, lekin xotining iztirob ichida qolgan horg'in chehrasini ko'rganda, taqdirga tan bergan va alam bilan to'lgan ovozi eshitganda tomog'iga bir nima kelib tiqildi-yu, nafasi bog'ilib qoldi, ko'zlarida yosh yiltiradi.

Xulosalar. Mirzakalon Ismoilij o'zbek xalqini jahon adabiyotining durdonalari: Lev Tolstoyning “Tirilish”, “Anna Karenina”, M.Sholoxovning “Inson taqdiri”, N.Ostrovskiyning “Bo'ron bolalari”, Migel de Servantesning “Don Kixot”, Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi”, Etel Lilian Voynichning “So'na” kabi romanlari bilan tanishtirdi.

Mutarjim tarjimani oddiy so'zma-so'z o'g'irish emas, balki asarning ma'no, ruh va g'oyasini o'zbek kitobxoniga ongiga yetkazish san'ati deb bildi. Tarjima orqali o'zbek milliy tilining ichki salohiyatini, jozibasini namoyish eta oldi. U rus va jahon adabiyotidagi murakkab birlik va iboralarni o'zbekchada mazmunij jihatdan yaqin shakllarda ifodaladi, tarjima

madaniyatini yuksak bosqichga olib chiqdi, adabiy aloqalarning rivojiga hissa qo'shdi.

“Anna Karenina” romani tarjimasidagi lingvomadaniy birliklarni parallel korpus doirasida tadqiq etish ikki tilli badiiy lug'at yaratishda, ularning avtomatik tarjima uchun lingvomadaniy birliklar bazasi bo'lib xizmat qilishida, ya'ni sifatlari tarjimani amalga oshirishda ahamiyati katta. Shuningdek, ikki til strukturasi tahlil etishda, tipik tarjima usullarini aniqlashda, tarjima tizimi statistikasini o'rganishda foydalidir.Parallel korpus doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar qiyosiy tilshunoslik, leksikografiya,

lingvomadaniyatshunoslik sohalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ш. Сафаров. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. Тошкент. 2019. - 299 б.
2. Ожегов С. И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 1960.
3. 1-том. – 768 с.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т. 2006. 4-jild. – 680 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т. 2006. 1-jild. – 114 б.
6. Мигранова Л.Ш. Фразеология романа “Анна Каренина” как фрагмент языковой картины мира Л.Н. Толстого. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Уфа-2010.
7. - 26 с.
8. Ғ.Саломов. Таржима назариясига кириш. Т.1978. – 219 б.
9. Қ. Мусаев.Таржима назарияси асослари.Т.2005. – 352 б.
10. Л.Толстой. Анна Каренина. Т.2019.1-4 қисм: 636 б; 5-8 қисм: 556 б.
11. Л.Толстой. Анна Каренина. Т.2020. С. 800 .